

## MULLO ALI QORIYNING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI

**Qosimov Sirojiddin**

*O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi*

*1-bosqich magistranti*

**Anotatsiya:** *Ushbu maqolada mufassir, muhaqqiq atoqli olimlardan hisoblangan Imam Mulla Ali Qoriy hayoti, ilmiy faoliyati, u yashagan davrdagi ijtimoiy siyosiy muhit va u yozgan asarlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, Mulla Ali Qoriy ta'lif olgan ustozlari, uning zamondoshlari tomonidan unga be'rilgan ta'riflar haqida ham so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Imam Mulla Ali Qoriy, shari'at, fiqh, tarjima, mufassir*

### ЖИЗНЬ И НАУЧНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МУЛЛО АЛИ КАРИ

**Аннотация:** В данной статье представлены сведения о жизни, научной деятельности, общественно-политической среде времени Имама Муллы Али Кари, одного из самых известных ученых и комментаторов, и его трудах. Упоминаются также учителя муллы Али Кари и описания, данные ему современниками.

**Ключевые слова:** Имам Мулла Али Кари, шариат, фикх, перевод, переводчик.

### LIFE AND SCIENTIFIC ACTIVITY OF MULLO ALI QARI

**Annotation:** This article provides information about the life, scientific activity, socio-political environment of the time of Imam Mulla Ali Qari, one of the most famous scholars and commentators, and his works. Mullah Ali Qari's teachers and the descriptions given to him by his contemporaries are also mentioned.

**Keywords:** Imam Mulla Ali Qari, Sharia, Fiqh, Translation, Interpretation

#### Ismi va nasabi:

U imom, alloma, nozik aql sohibi, Shayx Nuriddin Abul Hasan Ali ibn Sulton Muhammad al-Qoriy, al-Hiraviy so`ng al-Makkiy, al-Hanafiy, "Mullo Ali al-Qoriy" nomi bilan mashhurdir. U kishi qiroat ilmida kuchli bilimdon bo`lganligi sababli uni "Qoriy" laqabi bilan nasablangan. Uning Hirotda tug'ilganligi haqida aniq ma'lumotlar mavjud bo`sada, lekin tug'ilgan sanasi aniq belgilanmagan. Sababi, u tug'ilgan davrda odamlarning tug'ilish sanasiga ahamiyat berilmas edi, bunga ortiqcha ehtiyoj ham yo`q edi.

#### Ilmiy davri:

Imom Ali Qoriy Qur'oni karimdan Hirotda ta'lif oldi va shu joyda yod oldi. Qur'onning tajvid qoidalarini va qiroatni Shayx Mu'iniddin ibn Hofiz Zayniddin al-

Hiraviydan ta'lif oldi. Shuningdek, boshqa ilmlarni yurtidagi o'z asrining yetuk ustozlaridan saboq oldi. U ilm olib yurgan vaqt Temuriylar sulolasi (hijriy 817-912 yil) hukmronlik qilgan davrga to`g`ri keladi. Hirot shahri esa davlat poytaxti va madaniyat markazi hisoblangan.

Olimning tug`ilish vaqtini Hirot shahrida ilmu-fan inqirozi va orqaga qaytish davriga to`g`ri keladi. “Ismoilshoh” nomi bilan mashhur bo`lgan, rofiziy-safaviy podshohlardan Ismoil ibn Haydar as-Safaviy Hirot shahriga bostirib kirib ko`p musulmonlarni qatl qilgach, barcha olimlar shaharni tark etadi. Shu bilan birga Mullo Ali ham Makkaga shahriga yo'l oladi.

Tarixchi olimlar Mullo Alining nechanchi yilda o`z yurtidan chiqqanligini qayd qilishmagan, lekin Makkaga kirib borish sanasi hijriy 952-yilga to`g`ri keladi, deb ma'lumot qoldirishgan.

U Makka shahriga kirdi turmush tarzi yaxshilanadi. Mullo Ali ko`plab mashoyixlar va olimlar halqasida turib, ko`plab ilmlarni o`rgandi. O`sha asrda kuchli olimlar ko`p edi. U doimo bir ustozning uyida tunar, ilmu hikmat ichra suzib yurar edi. O`zidan keyin ko`plab asarlarni qoldirdi.

#### Ustozlari:

Imom Mullo Ali juda ko`p ulug` olimlardan ilm o`rgandi. Quyida o`z kitoblarida zikr qilgan ustozlar ismlarini keltiramiz:

Imom al-Muhaqqiq, faqih, muftiy, ustoz Shahobiddin Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Ali ibn Muhammad ibn Ali ibn Hajarulhaytamiy as-Sa'diy al-Ansoriy ash-Shofe'iy al-Misriy so`ng al-Makkiy. U “Ibni Hajar al-Haytamiy” nomi bilan mashhur (973 hijriy sanada vafot etgan).

Alloma, muhaddis, faqih, shayx Alouddin ibn Hisomiddin Abdulmalik ibn Qozixon al-Jung`uriy ar-Rahonfuriy al-Hindiy, so`ng Madaniy va Makkiy. U “Ali Muttaqiy al-Hindiy” nomi bilan mashhur bo`lib, “Kanzul ummol min sunanil aqvol val af`ol” kitobining muallfidir. Hijriy 975-yilda Makkada vafot topdi.

Shayx, olim, muhaddis Muhammad Said ibn Mavlono Xo`ja al-Hanafiy al-Xurosoniy. U “Mir G`ilon” nomi bilan mashhur bo`lib, 981-hijriy sanada vafot topgan.

Alloma, mufassir, musannid, faqih, qozi Shayx Mullo Abdullo ibn Sa'diddin Umariy Sindiy so`ng Makkiy Hanafiy. U hijriy 984 yilda Makkada vafot etgan.

mufassir, faqih, Shayx Zayniddin Atiyya ibn Ali ibn Hasan Sulamiy Makkiy Shofe'iy. U barcha musulmonlarning ustozи, tolibi ilmlarning mufiysi, Makkalik olim, o`z davrining tengsiz faqiji bo`lib 982-hijriy yilda vafot topgan.

- Alloma, mufassir, muarrix, mudarris, muftiy Shayx Abu Iso Qutbiddin Muhammad ibn Alouddin Ahmad ibn Muhammad Nahravoni Hindiy so`ng Makkiy Hanafiy. U “Qutbiy” nomi bilan mashhur bo`lib, 990 hijriy yilda vafot etgan.

Alloma, faqih, Shayx Shahobiddin Ahmad bin Badriddin Abbosiy Shofe'iy Misriy so`ng Hindiy. U Hindistonning Ahmadobod shahrida 992 hijriy yilda vafot topgan. Mullo Ali Qoriy U kishidan Makada tahsil olgan.

Alloma, shayx, muhaddis, faqih Muhammad bin Abu Hasan Muhammad bin Jaloliddin Muhammad bin Abdurahmon bin Ahmad Bakriy Sadiyyiqiy Shofe'iy Misriy. U 993 hijriy yilda vafot etdi.

Alloma, faqih, voiz, Shayx Sinoniddin Yusuf bin Abdullo Amosiy Rumiy Hanafiy Makkiy. U 1000 hijriy yilda Makkada vafot etdi.

Alloma mazhabimiz fiqhiy masalalariga doir ko`p risolalar ham yozgan. «Risalatu fi himayati mazhabil Imomi Abi Hanifa» (Imom Abu Hanifa mazhabini himoya qilish to`g`risida risola), «Risalatu fir raddi ala min zammi mazhabil Imomi Abi Hanifa» (Imom Abu Hanifa mazhabini yomonlovchilarga raddiya risolasi) shular jumlasidan.

Alloma o`ndan ortiq kitobga sharh yozgan. «Sharhi Sahihi Muslim» (Imom Muslim "Sahih"ining sharhi), «Sharhu Aynil ilmi va zaynil hilmi» («Hilmning ziynati va ilmning bulog`i» kitobiga sharh), «Sharhu al-Fiqhil akbar» ("Fiqhul akbar"ning sharhi), «Sharhu Musnad al-Imomi Abi Hanifa» (Imom Abu Hanifaning "Musnad"iga sharh), «Sharhu al-Hidoya lil Marg`inoniy» (Marg`inoniyning "Hidoya"sigi sharh), «Sharhu al-Viqoya fi masailil Hidoya» ("Hidoya" masalalaridagi "Viqoya"ga sharh) va «Mirqotil mafotih sharhi Mishkatil Masobih» («Mishkatul Masobih»ni sharhlashda ochilgan nozik o`rinlar) kabi sharhlari butun Islom olamida e'tiborlidir.

Mazhabimizning buyuk allomasi Mulla Ali Qori Imom Abu Hanifa, Sufyon Savriy va Fuzayl ibn Iyozlarning yo`lidan borib, hayotda duch kelgan masalalarga asosli javoblar bergen. Olim ilm va ibodatda sobitqadam va mo'tadil bo`lgan. Shuningdek, Manbalarda u zotning mohir xattot ham bo`lgani aytiladi. Alloma miskin va muhtojlarga ko`p yordam bergen, halol rizq istab, tarjima ishlari bilan shug`ullangan.

Alloma asarlarini tarjima qilgan kishilar aytishicha, u zot har yili bir marta chiroqli xat bilan Mus'hafni to`lig`icha ko`chirib, tushgan pulni ro`zg`orga ishlatar ekan. Shayx Abdulhalim No'moniy «Al-Imomi Aliyul Qori va asarihi fi ilmil hadis» asarida "Alloma Qur'oni karimni har olti oyda (bir yilda ikki bor) to`la ko`chirar, birining pulini Haramdagagi faqir-miskinlarga sadaqa qilar, ikkinchisini kini ehtiyojlariga sarflar edi", deb yozadi.

Hazrati Mulla Ali Qori hanafiy hijriy 1014-yili shavvol oyining 14-kuni Makka shahrida vafot etadi. Ba'zi rivoyatlarda allomaning Makka hududidagi «Muallat» degan joyga dafn qilingani aytiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1 "Xulasatul asar". 3-j., 185-bet; "Samatun nujum". 4-j., 393-b.

2 "Mirqotul mafotih". Bayrut, 1971. 1-j., 27-bet.